

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYA FANINING USTUNLIGI

Usmanova Qumriniso Saidaliyevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

“Boshlang'ich ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

Mardonqulova Sevinch Bahtiyor qizi

CHDPU Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tarbiya fanining qay darajada muhim ekanligi, tarbiya tushunchasi haqida yoritilgan.*

Kalit so'z: *tarbiya, Vatán, tarbiyaviy ishlar, jamiyat, ajdodlar, avlod, mustaqillik, ruh, psixologiya.*

KIRISH

Mamlakatimizda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiya ruhida tarbiyalash katta ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun boshlang'ich sinf va yuqori sinf o'quvchilariga tarbiya fani o'tib kelinmoqda. Bu fan orqali o'quvchilar Vatanga, ota-onaga hurmat o'zlarining tarbiya ruhida o'sib borishlariga erishadilar. Prezidentimiz tomonidan har bir sinf o'quvchilari uchun bu darslik nashr etilgan Tarbiya fanining bosh maqsadi, asosiy vazifasi va fanlat bilan bog'langan darajalari yoritilgan.

Asosiy qism

Avvalambor, tarbiya atamasiga to'xtalamiz. Tarbiya-shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatiga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetaochi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televedinye va boshqalarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng har sohaga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga, Ajdodlarimiz ham tarbiya ruhida voyaga yetgan, Bunga misol qilib: g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy, ham shoh ham shoir, ham sarkarda Zahirdiddin Muhammada Bobur, janglarda o'z xalqi uchun jonini bergan Shiroq, ayol bo'lishiga qaramasdan mardonovar kurashgan To'maris, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Koshg'ariy va boshqalar. Bu ajdodlarimizning sanasak son sanog'i yuq. Ular bilan faxrlansak arziydi. Hozirgi avlod yoshlarini tarbiya ruhida tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchilari qo'lida. Bolalarni onaga muhabbat, Vatanni qadriga yetish, har bir narsani qadrlashni o'rgatishimiz lozim. Tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiya berilish, yoki berilmaslik xususiyatlarini hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keladi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoladi, tarbiyalanuvchilarga alohida

shaxs sifatida emas istalgan ijtimoiy yo'nalishga solishi mumkin bo'lgan qiyofasiz tubda olomon tarzda qarash qaror topadi. Boshlang'ich sinf har bir o'quvchisi bilan alohida individual shug'ullanish talab etiladi.

O'quvchilarning psixiologik xarakterlarini yaxshi o'rganib olish lozim, fanlar jarayonida o'quvchilar bilan qiziqarli mahg'ulotlar o'tib turish talab qiladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilari juda sho'x va tezda zerikib qoluvchi bo'ladilar. Turli xil fanga doir o'yinlar esa ularni qiziqishlarini yanada oshiradi. Boshlang'ich sinflar uchun tarbiya fani katta ahamiyatga ega. Umuman olganda har bir sinf o'quvchisi uchun katta ahamiyatni talab qiladi. Tarbiyaning bosh maqsadi- yosh avlodni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'alariga urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish, amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi-shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanish qobiliyatlarini har tomonlama oshish uchun imkoniyat yaratishdir.

Tarbiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi:

pedagogika, psixologiya, falsafa, etika, fiziologiya, anataomiya.

Tarbiyaviy ishlar fanining asosiy maqsadi

-yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy ma'naviy

-tarixiy merosimizga, umum bashariy qadriyatlarga, urf- odat va an'analarga tayanib ongki shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyashdir.

Boshlang'ich sinflarga tarbiya fanini o'rgatishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

-o'quvchilarga tarbiya haqida tushuncha berish; -o'quvchilarni jamoa bolib ishlashga o'rgatish;

-o'quvchilarni o'zidan katta yoshdagi insonlarga hurmat qilishni o'rgatish ruhida tarbiyalash; Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu juda qiyin vazifa hisoblanadi. Avvalambor o'qituvchining o'zi tajribali va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab qilinadi. Tarbiya bu bizning hayotimiz davomida kerak bo'ladigan va hech qachon yo'qolib ketmaydigan harayondir. Kekajak avlod yoshlari uchun ham bu fan juda zarur va muhimdir.

Prezidentimiz tomonidan har bir sinf toifasi uchun "Tarbiya" fani bekorga qo'yilgani yuq. Hozirgi ko'p yoshlarimiz tarbiya nima ekanligini hali hanuz bilmaydilar. Tarbiya bizga avloddan avlodga meros bolib qoladi. Milliy tarbiya tushunchasiga toxtalsak ham bejiz emas bu borada. Milliy tarbiya-ko'p qirrali bo'lib uning milliy qadriyatlar deb olib boriluvchi maqsadga yo'naltirilgan tarbiyaviy faoliyati umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda :faqat o'quvchilar emas har bir yosh toifasidagi inson tarbiya tushunchasini anglab yetmog'im lozim. Abdulla Avloniy aytganlaridek: "Tarbiya biz

uchun yk hayot,yo halokat,yo najot vositasidir".Tarbiya bu bizning qanaqa inson ekanligimizni ko'rsatib beradigan jarayondir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirqosimova M. THE VIEWS OF AHMED YASSAVI ON SPIRITUAL EDUCATION //The Light of Islam. – 2019. – T. 2019. – №. 1. – C. 10.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: Voris-nashriyot, – 2013. – B. 10-35.
3. Mirqosimova M.M. Masofaviy ta'lim sharoitida o'quv fanlarini integratsiyalash tamoyillari // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2020 yil №1). 69- 80-b
4. Usmonova Q.S . Boshlangich sinf o'quvchilarida tankidiy fikrlashni shakllantirishda pedagogic-psixologik integratsiya va uzluksizlik. М УАЛЛИМ ХЕМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИ . 2023/3 .370-375-b <https://lib.cspi.uz/index.php?newsid=7951>
5. Usmonova Q.S. Boshlangich ta'limda Filandiya ta'lim tizimini imkonoyatlari . Международный научный журнал № 4 (100), часть 2 «Научный импульс» Ноябрь, 2022./4. 899-903-b
6. Usmonova Q.S Development of Steam International Assessment Program in Primary Education. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. 30th Apr 2023. 242-244 s
7. Usmonova Q.S. Use of Foreign Experiences and World Pedagogy in Elementary Education Teaching . Diversity Research: Journal of Analysis and Trends . Volume 1, Issue 5, August 2023 . 27-29 s